

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMYI KONFERENSIYA

YANGI O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCES.UZ

INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYO TARIXIDA KOSMOSGA
UCHGAN BIRINCHI INSON



Дуню Тарихи

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORVIJ OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IJTIDORLI TALABALAR



TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



OKTYABR
№57

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
8-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-8**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-8**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 57-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 октябрь 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 13 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофик:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Vafoqulova Go'zal Ochilovna ADABIYOT DARSLARIDA "XAMSA" DOSTONINI O'QITISH BO'YICHA METODIKA	7
2. Vafoqulova Go'zal Ochilovna ADABIYOT DARSLARIDA NOSIRIDDIN RABG'UZIYNING "QISASI RABG'UZIY" ASARI TAHLILI	9
3. Alijonova Noila NAVOIYNING OILAGA MUNOSABATI	11



АДАБИЁТ

ADABIYOT DARSLARIDA “XAMSA” DOSTONINI O’QITISH BO’YICHA METODIKA

Vafoqulova Go’zal Ochilovna
(Samarqand davlat chet tillar instituti
akademik litseyi ona tili va adabiyot
fani o’qituvchisi)

Annotatsiya: Maqolada Hazrat Alisher Navoiyningning «Xamsa» dostoning boshqa xamsanavislardan yutuqli va farqli tomonlari tahliliga e’tibor qaratilgan hamda maqoladan adabiyot darslarida metodika sifatida foydalanish mumkin bo’lgan.

Kalit so’zlar: «Matla ul-anvor» — Xusrav Dehlaviy «Xamsa»sining birinchi dostoni, «Maxzan ul-asror» — Nizomiy «Xamsa»sining birinchi dostoni, «Panj ganj» — «Besh xazina». Bu yerda Nizomiyning «Xamsa»si ko’zda tutiladi, «Silsilatuz-zahab» — Abdurahmon Jomiy asari, «Tuhfa» — Jomiy «Xamsa»sining birinchi kitobi — «Tuhfat ul-ahror», «Unsiya» — chin do’stlik, *adl* — adolat, bu dun — bu yerda so’z o’yini bor: bu yaramas dunyo hamda xalq, ko’pchilik, Bu ikki misraning manosi — Nizomiy so’z marvaridlarini tizgani uchun falak unga Nizomiy laqabini bergan, bu nav — bu xil (da); bu tarz (da), Bu yerda so’z o’yini bor: Ganja shahi — Nizomiy ganj sochuvchi, Dehlaviy esa unga ergashuvchidir, ammo ularning ikkisi ham so’z iqlimida shohdir (Xusravning lug’aviy ma’nosi ham «shoh» demakdir) Ularning asarlari nazarda tutiladi, *buxl* — baxillik, ganj — xazina

Hazrati Navoiyning epik asarlari deyilganda, ko’z oldimizga birinchi navbatda «Xamsa» keladi. «Xamsa»-beshlik degani. Binobarin, u besh mustaqil dostonidan iborat va har bir doston masnaviy yo’li bilan ma’lum bir mavzu va voqealar tizimini keng va atroflicha yoritib beradi.

Sharq adabiyotida birinchi bo’lib «Xamsa» yozgan kishi buyuk ozarbayjon shoiri **Nizomiy Ganjaviydir**. U 1173-1179-yillarda Arzinjon hokimi Faxriddin Bahromshohga bag’ishlab «**Maxzan ul-asror**» («Sirlar xazinasini») nomli nasihatnoma asar yozadi.

1180-1181-yillarda Iroq hukmdori To’g’rul II (ikkinchi)ning iltimosiga ko’ra muhabbat va qahramonlikni ifodalovchi «**Xusrav va Shirin**» dostonini yaratadi.

1188-yilda Shirvonshohlardan Axsatan I Nizomiyga Layli va Majnun haqida doston yozishni buyuradi. 1196-yilda yana bir hukmdor-Aloviddin Ko’rpa Arslonning topshirig’i bilan Bahrom haqidagi «**Haft paykar**» («Yetti go’zal») dostoni maydonga keladi. 1196-1201-yillarda so’nggi doston «**Iskandarnoma**» yaratiladi. Shu tariqa, 1173-1201-yillar oralig’idagi 28 yil davomida besh doston dunyo yuzini ko’radi va ular «**Panj ganj**» («Besh xazina») nomi bilan shuhrat topadi.

Nizomiy «Xamsa»si shoirlar uchun o’rnak va timsol bo’lib qoldi. Qanchadan qancha ijodkorlar unga ergashib alohida dostonlar va hatto «Xamsa» yozdilar. Lekin tarix ularning ko’pchiligini unutdi. Birinchi «Xamsa»ga har jihatdan munosib javob yuz yildan so’nggina maydonga keldi. Uning muallifi ota-bobolari asli shahrisabzlik bo’lib, mo’g’ul bosqini davrida Hindistonga borib qolgan **Xusrav Dehlaviy** (1253-1325) edi. U 1299-1301-yillarda «**Matla’ ul-anvor**» («Nurlarning boshlanmasi»), «**Shirin va Xusrav**», «**Majnun va Layli**», «**Hasht behisht**» («Sakkiz jannat»), «**Oyinayi Iskandariy**» («Iskandar oynasi») dostonlarini yaratib, Nizomiy ishini davom ettirdi va natijada, adabiyotda xamsachilik an’anasi paydo bo’ldi.

Qariyb ikki yuz yildan keyin birdaniga ikki buyuk xamsanavis maydonga chiqdi. Bular **Navoiy** va **Jomiy** edilar. Alisher Navoiyning «Xamsa»si boshqalardan farqli ravishda turkiy tilda yozildi va umumjahon adabiyotining yuksak cho’qqisi bo’lib qoldi. Navoiy «Xamsa»si XV asrda yashagan ajdodlarimiz ma’naviy holatining ko’zguisi bo’lib, unda o’sha davr ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatlarini, din-diyonat, axloq-odob haqidagi qarashlar o’z aksini topgan. Navoiy «Xamsa»si yaxlit asardir. Masalan, «Hayrat ul-abror»da shoir umr, uning mazmuni, tabiat, jamiyat



va inson munosabatlariga doir savollarni qo‘yadi, keyingi dostonlarda muayyan taqdir, voqealar misolida ularga javob berishga harakat qiladi.

Hazrati Navoiy 1485-yilda «Xamsa»ni tugallab, Husayn Boyqaroga taqdim etganida, asarning ahamiyatini tushungan hukmdor g‘oyat qattiq hayajonga tushadi. Sulton o‘zining oq otini keltirishlarini buyuradi. Otni keltirishgach, Navoiyni unga mindiradi. Shoir egarga o‘tirishi bilan Sulton Husayn otning jilovidan ushlab, yetaklay boshlaydi. Alisher Navoiy hushidan ketadi. Uni egardan ko‘tarib oladilar. Tarixda bunday hol ko‘rilmagan, hech bir zamonda shoh shoirga jilovdorlik qilmagandi.

Navoiy “Xamsa”siga kiruvchi dostonlar:

<p>“ HAYRAT UL – ABROR” ning tuzilishi.</p> <p>I. Muqaddima: 1-21 boblar: a) Hamd, munojot.(4ta)na‘t(5ta) b) Ustozlar madhi: Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy haqida. c) So‘z ta‘rifida. d) Husayn Boyqaro haqida. e) Ko‘ngul ta‘rifida. v) Hayratlar (3 ta) g) Hoja Bahovuddin Naqishband va Xoja Ubaydulloh madhi.</p>	<p>“XAMSA” dostonlari.</p> <p>1. “ Hayrat ul – abror” 3988 bayt. 2. “ Farhod va Shirin” 5782 bayt. 3. “ Layli va Majnun” 3623 bayt. 4. “ Sab‘ai sayyor “ 5009 bayt 5. “ Saddi Iskandariy” 7215 bayt. “XAMSA”- 25615 BAYT.</p>
-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

“Xamsa”. “Hayrat ul-abror” dostoni mavzusi yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Navoiyning “Xamsa”sining birinchi dostoni qanday nomlanadi?
2. “Hayrat ul-abror” dostoni qaysi bahrda yozilgan?
3. Doston necha bayt va qancha maqolatdan iborat?
4. “Hayrat ul-abror” dostonining qancha bobi so‘z va uning ma‘nosiga bag‘ishlangan?
5. Dostonning nechanchi bobidan so‘ng maqolalar boshlanadi?
6. Dostonning 1-maqolati nima haqida?
7. Dostonning 2-maqolati nima haqida?
8. Dostonning 3-maqolati nima haqida?
9. Dostonning 5-maqolati nima haqida?
10. Dostonning 10-maqolati nima haqida?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qozoqboy Yo‘ldoshev va boshqalar Adabiyot (darslik). 9-sinf uchun ”O‘zbekiston” nashriyoti T., 2019. 47-53-betlar.
2. Qozoqboy Yo‘ldoshev va boshqalar Adabiyot (darslik). 7-sinf uchun ”Sharq” nashriyoti T., 2017.
3. B To‘xliyev va boshqalar Adabiyot(majmua). 11-sinf uchun “O‘zbekiston milliy esklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti ,T, 2018.



ADABIYOT DARSLARIDA NOSIRIDDIN RABG’UZIYNING “QISASI RABG’UZIY” ASARI TAHLILI

Vafoqulova Go’zal Ochilovna
(Samarqand davlat chet tillar instituti
akademik litseyi ona tili va adabiyot
fani o’qituvchisi)


Annotatsiya: Maqolada **Nosiriddin Rabg’uziyning** « Qisasi Rabg’uziy » asari tahliliga atroflicha to’xtalib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Raboti o’g’uz, Qisasi Rabg’uziy, ma’siyat yoboni, London nusxasi, Gronbek.

Nosiriddin Rabg’uziy haqida bizgacha yetarlicha ma’lumot yetib kelmagan. Bizgacha yetib kelgan yagona asari «Qisasi Rabg’uziy»da ba’zi ma’lumotlar mavjud. Undagi ma’lumotlar ham to’liq emas. Uning asl ismi Nosiruddin bo’lib, Xorazmning Rabotu O’g’uz degan joyida tug’ilgan. Asarining muqaddimasida otasi Burhonuddinning O’g’uz Rabotining qozisi bo’lganligini aytib o’tadi. Asarda bu haqda: «Bu kitobni tuzgan, toat yo’lida tizgan, ma’siyat yobonin kezgan, oz ozuqlik, ko’p yozug’luk (yaxshiligi oz, gunohlari ko’p) Rabot O’g’uzining qozisi Burhon o’g’li Nosiruddin...» deb qayd etilgan. Rabg’uziy so’zini prof. N.Mallaev «Raboti o’g’uz»ning birikuvidan kelib chiqqan deydi. Demak, Rabg’uziy XIII asrning oxirlari va XIV asrning boshlarida yashagan xorazmlik shoirdir. Uning «Qisasi Rabg’uziy» asari o’zbek nasrining qadimiy namunasi. Bu asar islom dinini qabul qilgan mo’g’ul beklaridan biri bo’lgan Nosiruddin To’qbug’aning topshirig’i va homiyligida yozilgan. Asar hijriy 709-yil, melodiy 1309-10-yil, ba’zi manbalarda 1311-yil yaratilgan deb ko’rsatiladi. To’qbug’a Rabg’uziyga payg’ambarlar haqida asar yozishni topshiradi va natijada «Qisasi Rabg’uziy» yuzaga keladi. Muallif asarni bir-yil zahmat chekib tugatganini qayd etadi.

Rabg’uziyning ushbu asari Yer yuzining paydo bo’lganidan boshlab so’nggi payg’ambar – Muhammad alayhissalom haqidagi hikoyatlardan iborat edi. «Qisasi Rabg’uziy»ning turli davrlarda ko’chirilgan bir necha qo’lyozma nusxasi mavjud. Ular dunyoning turli kutubxona va qo’lyozma fondlarida saqlanadi. Asarning eng qadimiy qo’lyozma nusxasi XV asrda ko’chirilgan bo’lib, u Britaniya muzeyida saqlab kelinmoqda. Gronbek tomonidan 1948-yili Kopengagenda nashr qilingan. Manbalarga qaraganda, XV asr London nusxasi 1340-yilda Rabg’uziy tiriklik davrida ko’chirilgan. XV-XVI asrlarga mansub Sankt-Peterburg, XIX asrga oid Toshkent nusxalari mavjud.

Mavzuga doir taqdimot





Nosiriddin Rabgʻuziy va uning “Qisasi Rabgʻuziy” asari yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Nosiriddin Rabgʻuziy haqida bizgacha maʼlumotlar qaysi asar orqali yetib kelgan?
2. Yer yuzining paydo boʻlganidan boshlab soʻnggi paygʻambar – Muhammad alayhissalom haqidagi hikoyatlar qaysi asarda uchraydi.
3. “Qisasi Rabgʻuziy” dan qaysi qissalarni bilasiz?
4. “Qisasi Rabgʻuziy” kimning topshirigʻi va homiyligida yozilgan?
5. “Uzum hikoyati” mazmun-mohiyati nimadan iborat?
6. Nuh va uning kemasi haqidagi hikoyatning tarbiyaviy ahamiyati nimadan iborat?
7. Asarda qancha paygʻambar, xalifa, tarixiy shaxs va boshqalar toʻgʻrisida soʻz boradi?
8. “Qisasi Rabgʻuziy” ning eng qadimiy qoʻlyozma nusxasi qayerlarda uchraydi?
9. «Qisasi Rabgʻuziy» – badiiy-estetik qiymati, maʼnaviy-axloqiy ahamiyati haqida matn yozing.

10. Rabgʻuziyning tarjimai holi haqida soʻzlang.

Nosiriddin Rabgʻuziy va uning “Qisasi Rabgʻuziy” asari mavzusiga doir testlar

1. “Arslon mengizlik surati”, “Koʻrk suratlig surati” deb kim taʼriflangan?
2. A) Nosiriddin Rabgʻuziy B) Nosiriddin Toʻqbugʻa C) Dovud D) Sulaymon
3. Turkiy nasrning eng qadimgi namunasi qaysi?
A) Qisasi Rabgʻuziy B) Qisasi Yusuf C) Hibat-ul haqoyiq D) Devonu lugʻatit-turk
4. “Qisasi Rabgʻuziy” da qaysi paygʻambarning qoʻlida temir mumdek erir edi?
A) Iso B) Sulaymon C) Iso D) Dovud
5. “Chumoli” soʻzi asarda qanday berilgan? A) Chumoli B) Qumirsqa C) Moʻrcha D) Qarinja
5. Nuh alayhissalom tokni necha marta sugʻoradi?
A) Uch marta B) Ikki marta C) Bir marta D) Toʻrt marta
6. Chogʻir (ichkilik) ning paydo boʻlishi kimning nomi bilan bogʻliq?
A) Shayton B) Rabgʻuziy C) Toʻngʻizning D) Namrudning
7. Sulaymon paygʻambar bilan soʻzlashgan chumolining oti?
A) Manzara B) Muazzam C) Munazza D) Manzura
8. Nosiriddin Rabgʻuziyning ota kasbi? A) Muallim B) Qozi C) Darvozabon D) Xos soqchi
9. “Qisasi Rabgʻuziy” da qaysi illat halokatga sabab boʻluvchi deyiladi A) Sabrsizlik B) Qanoatsizlik C) Mehirsizlik D) Kibr

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. B.Toʻxliyev va boshqalar Adabiyot.(11-sinf va oʻrta maxsus uchun darslik-majmua). Oʻzbekiston milliy esklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti T, 2018
2. B.Toʻxliyev. Adabiyot (ALLarning I kurs talabalari uchun majmua). – T. 2013.



NAVOIYNING OILAGA MUNOSABATI

Alijonova Noila

Namangan viloyati

To'raqo'rg'on tuman

1-IDUM 11-sinf o'quvchisi

Annotatsiya: Maqolada Navoiyning oilaga bo'lgan munosabati, jumladan, ayolning oiladagi o'rniga alohida kuzatuvchanlik bilan e'tibori tilga olinadi.

АННОТАЦИЯ. В статье рассматривается отношение Алишера Навои к семье. А так же основное внимание уделяется к женщине её роли в семье.

Annotatsiya. The article focuses on Navoi's attitude to the family, including the role of women in the family.

Kalit so'zlar: ishq, so'fiy, tasavvuf, ilohiy ishq, vafo ahli, malak.

Garchi Navoiy yolg'iz o'tgan bo'lsa ham, lekin oilaviy hayotga munosabati ijobiy bo'lgan. Jumladan, ayolning oiladagi o'rniga oid muhim fikrlarni “Mahbub-ul qulub” asarida bayon etgan: Er bilan ayol bir-biriga mos tushsa, o'rtada boylik va saranjomlik bo'lur. Uy bezagi er-xotinning tinchligidan. Husni bo'lsa, ko'ngilga yoqimli bo'lar, odobli bo'lsa, jon ozig'idir. Aqlli bo'lsa, turmush intizomli, ro'zg'or tartibli va saranjom bo'lur. Kishi bu xildagi juftga erishsa, balki bunday baxt qo'lga tushsa yashirin baxt va kulfatda sirdosh va hamdam bo'lar. Turmushdan har jafo yetsa, hasratdoshing ul va aylanuvchi osmondan har balo kelsa, ko'makdoshing ul. Ko'ngling g'amidin u g'am chekadi, badaning zaifligi va horg'inligidan u qiynaladi. Nosoz juft uy uchun ham ochiq, ham yashirin qo'rqinchli kasallikdir. Uyatsiz bo'lsa, ko'ngling undan ozorlanad, yaramas bo'lsa, erning ko'ngli yaralanadi, yomon ishlik bo'lsa, eriga yuzqoralik qiladi. Agar er mayxo'r bo'lsa, uy obodligi yo'qoladi...”

Ko'rinib turibdiki, ayolning oilada tutgan o'rniga tajribasi bor kishidek kuzatuvchanlik va chuqur mulohaza bilan yondashgan. Navoiyning bu fikrlari Yusuf Xos Hojibning qarashlariga yaqindir. “Qutadg'u bilik”da erkak kishi to'rt xil toifadagi ayolga uylanishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi: boy, chiroyli, nasl-nasabl, farosatli. Shu bilan bir-biriga Yusuf Xos Hojib bu toifadan eng asosiysini aqillilik deb biladi va oqila ayolni boy, chiroyli, nasl-nasablilardan afzal deb biladi.

Demak, ulug' donishmandlar ayolning ma'naviy qiyofasiga asosiy e'tiborni qaratganlar. Navoiyning esa ayolga, muhabbatga munosabati birmuncha kengroq bo'lgan. Ma'lumki, Navoiy tasavvuf ilmining naqshbandiya tariqatiga moyil bo'lgan. Bu falsafa ta'limotiga ko'ra, xudo borliqda, uning hamma mavjudotlarda, jumladan, insonda zuhur etadi. So'fiylar ma'shuqalarida yaratganning jamolini ko'rganlar va sevikli yor timsolida unga intilganlar. Navoiy dostonlarining qahramonlari-Shirin va Laylida boqiy husn madh etilgan.

Navoiy “Farhod va Shirin”dostonining debochasida bir qizga shaydo bo'lgani, lekin u shoir yoqtirmagan kishilar bilan yaqin bo'lib, unga e'tibor bermaganini ta'kidlaydi:

Yana bois bukim, ishq balo sho'r,

Bir o'tdin aylab erdi jonimga zo'r. Ma'nosi quyidagicha: Yana bir sabab menga baloday yopishgan sevgi edi, o'sha olov mening jonimga zo'rlik qilib turar edi.

Vafosiz, ta'bsiz, noahl anga xush,

Vafo ahli bila bitta'b noxush. (Sevgilimga vafosiz, tabiati yo'q, noahllar xush ko'rinar edi, vafo ahlini tabiatidan chiqarib sevmas, yoqtirmas edi).

Malak hayli esa ashkim uchun rashk,

To'kibon ul pari har dev uchun ashk.

(Ko'z yoshlarim uning ishqida gavharday holda u yaramas kishilarga moyil).

Bir oykim bo'lg'ay ul solib manga dard,

Jahon paymou har joyu shavgard. (Menga qayg'u yuklagan ul oy, jahonni kezguvchi, har joyda bo'lguchi, kecha aylanguchi).

Manga aylab g'amu mehnatni munis,

O'zi har qayda bo'lg'ay sha'm majlis. (U go'zal menga qayg'u va mehnatni esh qilib, o'zi har joyda majlislarning sha'mi bo'lib yurar edi).

Men Navoiyning dunyodan yolg'iz o'tganiga ana shu “go'zal” sababchi, degan fikrdan yiroqman. Bu masala ulug' shoirning o'ta shaxsiy ishi va e'tiqodi bilan bog'liq nozik mavzudir. Nima



bo'lganda ham Navoiy oila masalasiga juda jiddiy qaragan, ayolni oilaning asosiy ustunlaridan biri deb bilgan.

Balki, Navoiy ulug' mutafakkir sifatida bunday hilqatni uchratmagani sabab muhabbat dostonlarida pok va go'zal ishqni kuylab o'tgandir? Har holda Layli va Shirin timsoli shoirning yuksak tuyg'ularini, orzularini ifodalagan. Navoiy muhabbat deganda ana shunday ayolni tushungan.

Sanoqdan adashib ketadi odam: naziri yo'q mutafakkir-daho shoir, nosir, g'azal mulkinging sultini, xamsanavis, zullisonayn ijodkor, sohibi devon, novator, musavvir, mutasavvif...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Xamsa". "Yangi asr avlodi", 2015-yil.
2. Adabiyot darsligi 9-sinf. "O'zbekiston nashriyoti" 2019-yil.
3. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asari. "Yangi avlod", 2015-yil.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 8-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.10.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000